

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

---

**USUBJONOV ZAXRIDDIN VASLIDDIN O'G'LI**

**QURILISH MATERIALLARI BOZORINI MARKETING  
KONSEPSIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**08.00.11-Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtorreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li**  
Qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish .....3

**Усубжонов Захриддин Васлиддин ўгли**  
Развитие рынка строительных материалов на основе концепций  
маркетинга .....29

**Usubjonov Zaxriddin Vasliddin ugli**  
Development of the building materials market based on marketing concepts.....57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**  
Список опубликованных работ .....62  
List of published works.....62

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2020.1.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**USUBJONOV ZAXRIDDIN VASLIDDIN O'G'LI**

**QURILISH MATERIALLARI BOZORINI MARKETING  
KONSEPSIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

**08.00.11-Marketing**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2021.1.PhD/Iqt1610 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda ( o'zbek, rus, ingliz(rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi  
(www.tsue.uz) va "Ziyonet" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Ahmadjon Soliyev  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** Akramov Toxir Abiraxmanovich  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raxmatov Ziyodulla Nosirovich  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "9" 4 soat 11<sup>00</sup> daqi  
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.  
Tel:(99871) 239-01-49, faks:(99871)-239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida  
tanishish mumkin (1424 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom  
Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel:(99871) 239-01-49, faks:(99871)-239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "20" 3 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "20" 3 daqi № 15 raqamli reestr bayonnomasi).



G.Q.Abdurahmanova  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj.Djurabayev  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, i.f.n., dotsent

R.X.Karlibayeva  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahondagi globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va sotish salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning bozorlari zamonaviy marketing konsepsiyalari asosida rivojlanmoqda. Hozirgi kunda, jahonda eng muhim o'ntalikka kiritilgan ijtimoiy muammolardan biri - bu aholining uy-joy bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "aholining har bir nafar kishi hisobiga uy-joy bilan ta'minlanishi ko'rsatkichi Germaniyada - 39 kv.m, Rossiyada 25.8 kv.m, Polshada 25 kv.m, Turkiyada 17 kv.m va AQShda - 70 kv.m ga to'g'ri kelmoqda"<sup>1</sup>. Qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishi asosan qurilish materiallariga bo'lgan talabning miqdor va sifat jihatidan qondirilishiga bog'liq bo'lib, bugungi kunda qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon bozorlaridagi shiddatli raqobat muhitiga moslashish, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni, sotish va xizmat ko'rsatish jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng qamrovli olib borilmoqda. Qurilish materiallari sanoatini raqamlashtirish, savdo va xizmatlar elektron tizimi yaratish, sohada sun'iy intellekt tizimini joriy etish, qurilish materiallari, savdosi va xizmatlarini jadal sur'atlarda rivojlantirish, soha korxonalarini faoliyatini modernizatsiya qilish, ilm-fan yutuqlarini joriy etishga davlat tomonidan imtiyozlar berish, soliq yukini kamaytirish, eksport va import ishlari xarajatlarining bir qismini qoplab berish, mutaxassis kadrlarga bo'lgan talabni qondirishning innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarda mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarni ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, 5 mlrd AQSh dollarlik loyihalarni amalga oshirish orqali qurilish materiallari sohasini yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish vazifalari belgilangan<sup>2</sup>. Yuqori qo'shilgan qiymatli qurilish materiallarini ishlab chiqarish, korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ixtisoslashgan yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma ishlab chiqarishlarni tashkil etish, talab etilayotgan sifatli mahsulot ishlab chiqarish turlarini kengaytirish, ichki bozorni import o'rnini bosuvchi va raqobatbardosh qurilish materiallari hamda mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to'ldirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish kabi vazifalarning samarali

<sup>1</sup> <https://gidnenuzen.ru/obespechennost-zhilem-po-stranam-mira-2020/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11 sentyabrdagi PF-158 sonli Farmoni lex.uz

ijrosini ta'minlash mazkur masalalarning ilmiy yechimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyuldagi PF-6244-son "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5239-son "Qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-sonli "Qurilish materiallari sanoatini tubdan-takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori, 2019-yil 23-maydagi № PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi.** Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy, axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Qurilish materiallari bozori muammolarining metodologik-nazariy asoslari jahondagi yetuk olimlar F.Kotler, M.Porter, E.Chemberlin, F.Sherer, D.Morris va boshqalar tomonidan o'rganilgan<sup>3</sup>. Qurilish materiallari savdosida marketingning turli jihatlari va savdo san'ati masalalari, Yevropada biznes qilish usullari, yirik savdo komplekslari faoliyati T.Ber, A.Norton, X.Silva, E.Bernd va V.Xoyer va boshqalar tadqiq etishgan<sup>4</sup>. Qurilish materiallari savdo komplekslariga xaridorlarni jalb etish, yirik savdo kompaniyalarining yutuqqa erishish va pasayish omillarini xorijiy olimlar P.Anderxin, V.Danenburg, D. Kolinz, R.Monkrif tomonidan o'rganilgan<sup>5</sup>.

MDH mamlakatlari olimlaridan U.Izard, A.M.Lavrov, N.N.Nekrasov, A.S.Novoselov tomonidan mintaqaviy qurilish materiallari bozorini rivojlanish masalalari tadqiq etilgan<sup>6</sup>. Zamonaviy qurilish materiallari savdo komplekslarini tashkil etish va rivojlantirish, boshqarish masalalari, ulgurji va chakana savdo

<sup>3</sup> Котлер Ф, Катаржая Х., Сетиаван И. Маркетинг 4.0 (таржима) Тошкент 2022. Котлер Ф, Хервман Картаджайя, Айвен Сетиаван. "Marketing 5. Технологии следующего поколения" 2021 www.litres.ru; Портер М. «Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран» (пер. с англ.) М.: Издательств «Международные отношения», 1993; Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции / Э. Чемберлин. - М.: Экономика, 1996. - 351 с.; Шерер Ф. Структура отраслевых рынков: Пер с англ. / Ф. Шерер, Д. Росс. - М.: ИНФРА-М, 1997. - 698 с.; Моррис Д. Теория организации промышленности / Д. Моррис; Ж. Тироль, Д. Хэй. - СПб.: Вьш. шк., 1999. - 589 с.

<sup>4</sup> Бер Т. Дао продаж. - М.: Изд-во «Торговый дом «Гранд», 2001; Нортон А. Продажи как увлекательный бизнес. - М.: Бератор - Пресс, 2003; Сильва Х., Бернд Э. Искусство торговли по методу Сильва / Пер. с англ. - Минск: Попурри, 2001; Хoyer В. Как делать бизнес в Европе. - М.: Прогресс, 2002;

<sup>5</sup> Anderxin П. Почему мы покупаем, или Как заставить покупать / Пер. с англ. Н.В. Кремко - Мн.: ООО «Попури». 2003; Даненбург В., Монкриф Р., Тейлор В. «Основы оптовой торговли», пер. с англ.: - М.: Сирин, 2003; Коллинз Д. От хорошего к великому. Почему одни компании совершают прорыв, а другие нет... - Стокгольмская школа экономики в Санкт-Петербурге, 2001;

<sup>6</sup> Изард У. Метод регионального анализа: введение в науку о регионах. - М.: Прогресс, 1966.; Лавров А.М., Сурнин В.С. Собственность. Приватизация. Управление. Маркетинг. - Кемерово: Кн. изд-во, 1993. - 304 с.; Некрасов Н.Н. Региональная экономика. - М.: Экономика, 1978.; Новоселов А.С. Теория региональных рынков. - Ростов н/Д.: Феникс, 2002.

asoslari O.Aborneva, A.Belkovskiy, D.Vladislavlev, V.Vertogradov va S.Mazin M.Levi, B.Veyts tomonidan o'rganilgan<sup>7</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan A.Sh.Bekmurodov, A.Soliyev, Sh.Dj.Ergashxodjayeva, T.A.Akramov, M.A.Ikramov, M.A.Yusupov, A.D.Sultonov, A.Metyakubov, D.Matrizayeva tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan<sup>8</sup>. A.D.Sultonov tomonidan qurilish materiallari ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi vositachi korxonalarining marketing faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlarini tadqiq etish;

qurilish materiallari B2B bozori xususiyatlarini tahlil qilish;

O'zbekiston qurilish materiallari bozorini Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozorlariga integratsiyalashish yo'nalishlarini tahlil qilish;

qurilish materiallarini bozorida taklif va uni shakllantirishda marketing tadqiqotlari o'tkazish;

qurilish materiallarini sifatini va raqobatbardoshligini baholash;

qurilish materiallari bozorida marketing tadqiqotlari samaradorligini baholash;

qurilish materiallari bozorida raqamli marketingdan foydalanishning elektron platformalar samaradorligini oshirish;

Namangan viloyati qurilish materallari sanoatini "klaster" strategiyasi asosida rivojlantirish modelini yaratish;

Namangan viloyati qurilish materiallari bozorini prognozlash modelini ishlab chiqish;

<sup>7</sup> Аборнева О.И. Современный механизм регулирования экономической деятельности торговли: региональный аспект // Менеджмент в России и за рубежом, -2001. №3.; Белковский А.Н. Конкурентная стратегия и Россия (точка зрения Майкла Портера) // Менеджмент в России и за рубежом. - 2004. № 5; Вертоградов В. Управление продажами. - М.: ОЛМА-ПРЕСС Инвест: Институт экономических стратегий, 2003; Владиславлев Д.Н. Современные бизнес - технологии в торговле. - М.: Ось - 89, 2002; Мазин С.С. Управление развитием торговли строительными материалами. Дисс. кандидата экономических наук. Москва-2007; Леви М., Вейтц Б. Основы розничной торговли. СПб.: Питер, 2003;

<sup>8</sup> Бекмуродов А.Ш., Янг Сонг Бэ. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Ташкент: ТГЭУ. 2006. – 112 с.; Солиев А. "Маркетинг" дарслик. -Т. 2008; Эграшходжаева Ш.Дж, Қосимова М.С, Юсупов М.А Маркетинг. Дарслик-Т. ,2019.; Акрамов Т.А. Корхоналар инновацион маркетинг стратегиясининг концептуал асосларини такомиллаштириш. Монография.-Т.:Фан, 2004; Икрамов М.А., Салимов С.А.Международный маркетинг:учеб.Пособие для ВУЗов.-Т.:Изд-во Нац.Библ 2010.-276с; А.Д.Султанов. "Механизм повышения эффективности маркетинговой деятельности коммерческо-посредческих организаций в условиях либерализации экономики" диссертация на учёной степени доктора экономических наук. Тошкент 2008 г.; А.Дж.Мэтякубов "Қурилиш материаллари саноатига инвестицияларни жалб этишнинг бошқариш самарадорлигини ошириш" PhD Илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.Тошкент-2019 й. Д.Ю.Матризаева "Саноат корхоналарининг иқтисодий самарадолигини бошқаришнинг илмий-амалий асослари" PhD Илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.Тошкент-2020 й.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida, Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi va qurilish ishlarini amalga oshiruvchi hamda savdo korxonalari faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish jarayonidagi iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda statistik tahlil, kabinet va dala tadqiqot usullari, ekonometrik modellar, mantiqiy tahlil, ekspert baholash boshqa usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra qurilish materiallari bozorida "korxonalararo savdo" (B2B) tushunchasi qurilish materiallarining xaridini amalga oshirishda mahsulotlarning sifati, yaroqlilik muddati, tovarlar reglamenti bo'yicha belgilangan standartlarga javob berishi, xom-ashyolar maxsus test laboratoriyalardan o'tkazilganligi kabi xususiyatlarini namoyon etuvchi axborot va iqtisodiy tavsifdagi o'zaro ta'sirlar majmui jihatidan takomillashtirilgan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish, savdosi va qurilish xizmatlari raqobatbardoshligini yanada oshirishga imkoniyatlar yaratuvchi, yagona innovatsion-texnologik zanjirda faoliyat yurituvchi "NAMANGAN QURILISH MATERIALLARI VA XIZMATLARI" klasteri modeli ishlab chiqilgan;

Namangan viloyatida qurilish ishlari tannarxini pasaytirish bo'yicha marketing tadqiqotlariga ko'ra asosiy turdagi materiallar narxini pasaytirish ( $N_M=29,3$ ), import tovarlarni mahalliyashtirish ( $M_I=31,7$ ) va hajmini qisqartirish ( $H_I=26,8$ ), innovatsion tavsifdagi materiallar yaratish ( $I_M=12,2$ ) omillari o'rtasidagi maqbul nisbatlardan foydalanish asoslangan;

Namangan viloyatining qurilish materiallari bozoriga ta'sir etuvchi omillar xususiyatlari va o'zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda egri chizikli matematik modellar asosida 2026-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Namangan viloyati qurilish materiallari sanoatini "klaster" strategiyasi asosida rivojlantirish bo'yicha klaster modeli ishlab chiqilgan;

elektron axborotlarni to'plash, tahlil qilish va foydalanish, qurilish materiallari xaridlarini amalga oshirishda barcha hududlar bo'yicha ishlab chiqaruvchilarni qamrab olish qurilish materiallari elektron savdo platformasi samaradorligini oshirishi asoslangan;

zamonaviy qurilish materiallari savdo komplekslarini "gipermarket" tipida tashkil etish qurilish materiallari savdosining raqobatbardoshligini oshirishi asoslangan;

aholining uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va ularni rivojlantirish zarurligi ko'rsatilgan;

hududlardagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketingdan foydalanish zarurligi aniqlangan;



“Namangan qurilish materiallari va xizmatlari” klasterini tashkil etish bosqichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi jahon va jumladan O‘zbekiston olimlarining qurilish materiallari bozorini rivojlantirish, xususan sohaning marketing xizmati xususiyatlari va ularni rivojlantirish mexanizmlari bo‘yicha qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqotlar jarayonida qo‘llanilgan uslubiy yondashuvlar va usullarning asoslanganligi, ma‘lumotlarning axborot bazasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, shuningdek taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning, O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasi tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflardan qurilish materiallari bozori subyektlarining faoliyatini ifodalovchi marketing konsepsiyalarini ishlab chiqish, unda zamonaviy bozorlar tendensiyalari talablarini inobatga olish, zamonaviy klasterlashtirish modelini asoslash, elektron platformani joriy etish metodikasini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar tayyorlash, qurilish materiallari savdosida zamonaviy xizmat turlarini ko‘rsatishning ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mamlakatimizda zamonaviy qurilish materiallari bozorini shakllantirish, unda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish bo‘yicha elektron tijorat - savdo faoliyatini rivojlantirish parametrlarini asoslashda hamda “B2B Marketing”, “Brendni boshqarish”, “Internet marketing” fanlari bo‘yicha keys-stadiylar, ma‘ruzalar matni tayyorlashda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qurilish materiallari bozorini marketing konsepsiyalari asosida rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra qurilish materiallari bozorida “korxonalar(biznes)lararo savdo” (B2B) tushunchasi qurilish materiallarining xaridini amalga oshirishda mahsulotlarning sifati, yaroqlilik muddati, tovarlar reglamenti bo‘yicha belgilangan standartlarga javob berishi, xom-ashyolar maxsus test laboratoriyalaridan o‘tkazilganligi kabi xususiyatlarini namoyon etuvchi axborot va iqtisodiy tavsifdagi o‘zaro ta’sirlar majmui jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan magistratura talabalari va tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan “B2B marketing” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug‘i.) Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida, mazkur sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar, magistratura talabalarining qurilish materiallari B2B bozori xususiyatlari bo‘yicha yanada kengroq nazariy-uslubiy bilim va ko‘nikmalar hosil qilish imkoni yaratilgan;

qurilish materiallari ishlab chiqarish, savdosi va qurilish xizmatlari raqobatbardoshligini yanada oshirishga imkoniyatlar yaratuvchi, yagona innovatsion-texnologik zanjirda faoliyat yurituvchi "Namangan qurilish materiallari sanoati materiallari va xizmatlari" klasteri modeli O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasi amaliyotiga joriy qilindi (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 25-iyuldagi №05/13-1459-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijada, viloyatda faoliyat yuritayotgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi, qurilish ishlari amalga oshiruvchi hamda savdo korxonalarini faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishga erishilib, qurilish materiallari sanoatini klaster strategiyasi asosida rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

Namangan viloyatida qurilish ishlari tannarxini pasaytirish bo'yicha marketing tadqiqotlariga ko'ra asosiy turdagi materiallar narxini pasaytirish ( $N_M=29,3$ ), import tovarlarni mahalliyashtirish ( $M_I=31,7$ ) va hajmini qisqartirish ( $H_I=26,8$ ), innovatsion tavsifdagi materiallar yaratish ( $I_M=12,2$ ) omillari o'rtasidagi maqbul nisbatlardan foydalanish taklifi O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasi korxonalarini faoliyatiga joriy qilindi (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 25-iyuldagi №05/13-1459-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida, 2023-yilning 5 oyi davomida Namangan viloyatidagi "Quruvchi" XK da mahsulotlar sotuv hajmi 30 foizga oshdi va mijozlar soni 15 foizga ko'paydi, "Aktash global trade" XK da qurilish materiallari sotib olish harajatlari 35 foizga kamaydi va korxonada qurilish ishlari tannarxi pasayishiga imkoniyat yaratilgan;

Namangan viloyatining qurilish materiallari bozoriga ta'sir etuvchi omillar xususiyatlari va o'zgarish tendensiyalarini hisobga olgan holda egri chiziqli matematik modellar asosida 2026-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasi amaliyotiga joriy etildi (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalarini uyushmasining 2023-yil 25-iyuldagi №05/13-1459-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida Namangan viloyati qurilish materiallari sanoati, qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi, qurilish ishlari va aholining uy-joy bilan ta'minlanishiga qaratilgan strategik yo'nalishlarni ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to'qqizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 154 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qurilish materiallari bozori va uning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari, qurilish materiallari B2B bozori xususiyatlari, O'zbekiston qurilish materiallari bozorini Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozorlariga integratsiyalashish yo'nalishlari yoritilgan.

Dissertatsiyada ta'kidlanishicha, bozor (ingl. Market)- insoniyatning tarixiy kashfiyoti bo'lib, u o'z taraqqiyotida iqtisodiy ahamiyati bilan birga, odamlarning ma'naviy yuksalishiga ham ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Inson bozordagi savdo-sotiq orqali tovarlarni xarid qilish bilan mamlakat va jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar va yangiliklardan bahramand bo'ladi, o'z mahorati va bilimni yanada oshirishga ilhomlanadi. Bu esa o'z navbatida ilmiy-texnika progressini rag'batlantiradi va takroran ishlab chiqarishni jadallashtirib uning ixtisoslashishiga zamin yaratadi<sup>9</sup>.

Bozorni tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari, ulardagi iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni tadqiq etish va boshqarish bilan bog'liq munosabatlar “Marketing” – “Bozorshunoslik” fani obykti va predmetini ifodalaydi. Mazkur fan asoschisi AQSh professori Filip Kotler bo'lib, hozir u tomonidan Marketingni XX–XXI asr konsepsiyalari, hozirgi zamonaviy “Marketing 4 – raqamli marketing” va “Marketing 5 – sun'iy intellektlar marketing”gacha asoslangan.

Tadqiqot ishida bozorlarni mahsulot turiga ko'ra turlarga ajratilgan va eng yiriklaridan biri bu qurilish materiallari bozori ekanligi asoslangan. Qurilish materiallari bozori murakkab, ko'p bo'g'inli tizim bo'lib, uning asosiy elementlarini qurilish materiallari va mahsulotlarining o'ziga xos turlari bilan ifodalanadi. Har bir material tashqi ko'rinishi, tarkibi va sifat ko'rsatkichlari bilan farqlanadi. Amaldagi xom ashyoning turi va tarkibiga, uni qayta ishlash texnologiyasiga qarab, qurilishda funksional maqsadi bilan farq qiluvchi ko'plab qurilish materiallari va buyumlari yaratiladi. Katta xilma-xillikka qaramay, qurilish materiallari ham umumiy xususiyatlarga ega.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha bino va inshootlarni qurish xarajatlari tarkibida qurilish materiallari tannarxning 50-60 % va undan ortiqni tashkil qiladi. Qurilish materiallari tannarxini pasaytirish bilan bir vaqtda ularning sifatini oshirish bugungi kunda hududlardagi qurilish tashkilotlarining ehtiyojlarini qondirish, uy-joy tannarxini pasaytirish va uy-joy muammosini hal etishning asosiy yo'nalishlaridan biridir.

<sup>9</sup> Soliyev A, Buzrukxonov S. “Marketing” darslik, Toshkent “Iqtisodiyot – Moliya” 2010 yil 3-b

Tadqiqot ishida qurilish materiallari bozorining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi quyidagi holatlar aniqlangan:

- ma'lum turdagi va sifatidagi nisbatan bir xil tovarlar;
- tovarning uzoq muddat xizmat qilishi;
- tovar sifatiga va sertifikatlashtirishga qo'yiladigan o'ziga xos talablar;
- bozor subyektlarining nisbatan kichik soni (iste'mol bozoriga nisbatan);
- yuqori transport xarajatlari;
- maxsus infratuzilma - sotuvchilar, tartibga soluvchilar va nazorat qiluvchi organlar.

Qurilish materiallari bozoridagi taklif - bu hududiy qurilish materiallari sanoati korxonalaridan ishlab chiqarilgan qurilish materiallari va chetdan olib kelingan qurilish materiallarining ma'lum vaqt davomida muomalada bo'lgan umumiy hajmidir. Qurilish materiallari bozoridagi talab esa bu qurilish tashkilotlari va boshqa iste'molchilarning ham hududiy, ham mamlakatning boshqa subyektlaridan qurilish materiallariga bo'lgan umumiy ehtiyojning mablag' bilan ta'minlangan qismidir.

Qurilish materiallari bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar mavjud bo'lib, ularning barchasi mazkur bozorning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi dissertatsiyada qayd etilgan.

Dissertatsiya birinchi bobining ikkinchi qismida "B2B Marketing" xususiyatlari yoritilgan. Marketing fanining asoschisi, AQSh professori F.Kotler, "B2B Marketing"ni ikki tomon (biznes vakillari) o'rtasidagi marketing munosabatlari sifatida ta'riflagan<sup>10</sup>. "B2B marketing" atamasini, tovar va xizmatlarni taqdim etish va bozor subyektlari o'rtasida foyda olish bilan bog'liq bo'lgan harakatlar va jarayonlar majmuini shakllantirish jarayoni yoki boshqacha ma'noda, "biznes uchun biznes" deb ham tushuniladi. Hozir mazkur atama rus tilida ham faol qo'llanilmoqda. Rus olimlari tomonidan "B2B marketing" atamasi, "Ikki biznes tashkiloti o'rtasida vujudga keladigan, biri tovar yoki xizmat sotuvchi vazifasini bajaruvchi, ikkinchisi-ularni sotib oluvchi tijorat munosabatlari tushuniladi" deb ta'riflamoqdalar. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, "B2B bozori" deganda, tovarlar va xizmatlarni sotuvchi va iste'molchining yuzma-yuz uchrashuvi natijasida, ulgurjisiga oldi-sotdi jarayonini tashkil etishni tushunish lozim.

"B2B Marketing" - mahsulotni taqdim etish va bozor subyektlari o'rtasida foyda olish uchun bozor tadqiqotlari o'tkazish, marketing strategiyasini ishlab chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan harakatlar va jarayonlar majmui hisoblanadi<sup>11</sup>.

B2B va B2C bozorlari va marketingi o'rtasidagi farqlar mavjud bo'lib, B2B - biznes bozori va marketingi bo'lib, B2C esa iste'mol bozori va marketingi deyiladi.

Qurilish materiallari B2B bozori xususiyatlari - bu tovarlarning yuqori sifati va belgilangan standartlar asosida ishlab chiqarilishi bilan ajralib turadi. Qurilish

<sup>10</sup> Kotler Philip (2003). Marketing Management. Upper Saddle River, NJ: Prentice-Hall.

<sup>11</sup> Solieyev A, Usubjonov Z. "B2B marketing" o'quv qo'llanma 2021y 8-9 b.

materiallari B2B bozorining rivojlanishi so'nggi yillarda qurilish ishlari hajmining oshishi va mamlakatda qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan bir qatorda yildan yilga energiya tejamkor, import o'rnini bosuvchi, innovatsion va yangi turdagi qurilish materiallariga bo'lgan talab ham ortib bormoqda. Xususan, qurilish materiallariga bo'lgan talab nafaqat mahalliy balki jahon bozorlarida ham kun sayin o'sib bormoqda.

Qurilish materiallari B2B bozorida xaridlarni amalga oshirishda quyidagi xususiyatlar muhim hisobladi:

- mahsulotning yuqori sifatligi;
- yaroqlilik muddati;
- tovarlar reglamenti bo'yicha belgilangan standartlarga javob berishi;
- xom ashyolar maxsus test(laboratoriyalardan o'tkazilganligi);
- qurilish materiallarining ta'minot zaxirasi mavjudligi;
- transport xarajatlari.

B2B bozorida sotib olingan qurilish materiallari hajmi, murakkabligi va ahamiyati xaridorning ko'proq texnik bilim va tajribaga ega bo'lishini talab etadi. Qurilish materiallari sotuvida narx ko'pincha mahsulotning sotuv hajmi, o'zaro munosabatlar tarixi va to'lov shartlari hamda sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish kabi omillarga bog'liq bo'ladi.

B2B bozorida qurilish materiallari sotib olish jarayonida korxonalar va firmalar ishlab chiqaruvchining brendi va ishlab chiqarish salohiyati hamda mazkur bozorda egallagan ulushiga qarab sotuvni amalga oshiradi.

Dissertatsiya birinchi bobining uchinchi qismida O'zbekiston qurilish materiallari bozorini Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozorlariga integratsiyalashish yo'nalishlari yoritilgan. Mamlakatimiz qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bozorlarida mustahkam o'rin egallashida quyidagilarni amalga oshirilishi muhim deb hisoblaymiz:

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi mamlakatlarining qurilish materiallari importi tarkibini tahlil qilish va mamlakatimizda qurilish materiallari ishlab chiqarishda mavjud standartlarni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi talablariga moslashtirish;

Ishlab chiqarishda yangi texnika-texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish;

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi davlatlari bilan innovatsion qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish, amaliy tajriba almashish va ilg'or texnologiyalarning o'zaro transferini amalga oshirish.

Dissertatsiyaning "**Qurilish materiallari bozorini marketing tadqiqotlari asosida baholash**" deb nomlangan ikkinchi bobida qurilish materiallarini bozorida taklif va uni shakllanishida marketing tadqiqotlari, qurilish materiallari sifati va raqobatbardoshligi o'rganilgan. Qurilish sanoatini rivojlanishi, aholini turmush darajasini ta'minlovchi muhim jarayon bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy siyosat natijasini ham ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal

rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>12</sup>gi qarorida qayd etilganidek, O'zbekistonda, keyingi yillarda raqobatbardosh qurilish mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur qaror bilan 2019–2025-yillarda mahalliy xom ashyo geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish prognoz ko'rsatkichlari hamda 2019–2025-yillarda diversifikatsiya qilish va mahsulot turlarini kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarishning maqsadli ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Shu bilan birga, mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning eksport qilinayotgan mahsulotini sertifikatlashtirish bo'yicha xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar sanoat va savdo vazirligining Eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan qoplanadi hamda boshqa soliq va bank foiz-stavkalaridan imtiyozlar ko'zda tutilgan. Qarorda qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish, talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulot turlarini kengaytirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga doir ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish va boshqalar belgilab berilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi № PF-6244-sonli "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi farmonida qayd etilganidek, hududlarda mavjud sanoat salohiyatidan, ayniqsa, qurilish industriyasini rivojlantirishda noruda minerallarning xom ashyo bazasini o'zlashtirish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti. Qurilish materiallari va boshqa mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi yaxlit tizimni yaratish, shuningdek, hududlarning sanoat salohiyatini oshirish maqsadida:

mavjud tabiiy va iqtisodiy resurslarni jalb qilish, tumanlar (shaharlar) salohiyatini ishga solish va ularning nisbiy ustunliklaridan foydalanish asosida mahalliy sanoatni rivojlantirish "drayverlari" bo'lgan tarmoqlarni aniqlash; tarmoqlarning ichki va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirish, korxonalarni global ishlab chiqarish zanjirlariga jalb qilish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni uchinchi davlatlarga hamkorlikda eksport qilishni yo'lga qo'yish;

"qo'shimcha qiymat zanjirlari"ni kengaytirish, tayyor mahsulotlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni chuqurlashtirish asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;

zamonaviy tendensiyalarni hisobga olgan holda mahalliy sanoat korxonalari uchun professional kadrlar tayyorlash, trening dasturlaridan keng foydalanish va boshqa bir qator vazifalar belgilangan<sup>13</sup>

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23 maydagi (№PQ-4335) "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyundagi "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi (PF-6244 sonli) Farmoni // [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

Qurilish materiallari ishlab chiqarishning rivojlanishi<sup>14</sup>

Hududlar	Ishlab chiqarish hajmi			Aholi jon boshiga ishlab chiqarish		
	2017 yil (mlrd so'm)	2022 yil (mlrd so'm)	2017 yilga nisbatan o'sish sur'ati, marta	2017 yil (ming so'm)	2022 yil (ming so'm)	2017 yilga nisbatan o'sish sur'ati, marta
O'zbekiston	8069,0	25523,1	3,1	251,2	723,6	2,9
Namangan	193,2	797,9	4,1	72,8	272,2	3,7

2017–2022-yillarda Namangan viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi 4,1 baravarga oshgan bo'lsa, respublikada bu ko'rsatkich 3,1 baravarni tashkil etgan. Aholi jon boshiga qurilish materiallari ishlab chiqarishda Namangan viloyati ko'rsatkichi respublikadan sezilarli darajada past bo'ldi. Respublikaning qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichida Namangan viloyati ulushi 2017-yil 2,4 foiz, 2022-yil bu ko'rsatkich 3,1 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichi viloyatda 2022-yil davomida respublika ko'rsatkichidan 451,4 ming so'mga kam bo'ldi. Ammo 2017-yil holati bilan solishtirganda viloyat ko'rsatkichi respublika ko'rsatkichidan yuqori darajada o'sishni tashkil etgan.

Ishlab chiqarilgan ayrim turdagi qurilish materiallari tarkibi tahlili,<sup>15</sup> 2021yil

№	Viloyatlar	Jami qurilish materiallari		Jumladan							
		hajmi mlrd.so'm	jamidagi ulushi %	Sement		Deraza oynasi		Shifer		Qurilish g'ishtlari	
				ming tonna	jamidagi ulushi %	ming metr kv.	jamidagi ulushi %	mln. shartli plitka	jamidagi ulushi %	mln. dona	jamidagi ulushi %
1	Namangan	693,6	3	14,2	0,1	-	-	1,6	0,4	55,6	5
2	Andijon	769,6	3,4	75,7	0,6	-	-	13,9	3,8	45,3	4
3	Farg'ona	854,7	3,7	1576,2	12	12229	66	228,1	62	84,4	7,6
	Jami O'zbekiston	23030	100	13043,3	100	18556,2	100	367,7	100	1114,8	100

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi 2023-y 24-yanvardagi № 2316-024 sonli xatga asosan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi

<sup>15</sup> O'zbekistonda qurilish 2017-2021-yillar statistik to'plam(173-176 betlar)ga ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Vadiv viloyatlarining qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichi tahti etilganda 2021-yil Namangan viloyatida ishlab chiqarilgan qurilish materiallarining respublikada ulushi 1 foizni tashkil etib, bunda ishlab chiqarilgan sement 0,1 foizni, shifon 1,8 foizni qurilish g'ubri 5 foizni tashkil etdi. Qurilish materiallari ishlab chiqarish ko'rsatkichi Namanganda 803,6 mlrd so'm bo'lsa Farg'onada 854,7 va Andijonda 765,8 mlrd so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilgan. Farg'on va Andijon viloyatlarida qurilish materiallari ishlab chiqarish Namangan viloyatiga qaraganda yanada rivojlangani yuqoridagi jadvalda berilgan ko'rsatkichlarda ham o'z ifodasini topgan. Ishlab chiqarilgan deraza oynasining 60 foizi, shifonning 62 foizini yanma Farg'on va viloyatida ishlab chiqarilgan.

3-jadval  
2017–2022-yillarda qurilish materiallari eksport va import ko'rsatkichlari  
tahlil<sup>10</sup>

Ko'rsatkichlar	Hududlar	mln AQSH.doll						2017 yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
		2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	
Eksport	O'zbekiston	152,7	70,9	90,8	140,9	211,2	209,3	1,9
	Namangan viloyati	0,3	0,9	1	1,9	4,1	6,7	23,3
Import	O'zbekiston	967,9	1200,8	1330,0	1187,0	1381,7	1653,1	1,7
	Namangan Viloyati	29,9	49,3	43,3	45,3	52,1	57,7	1,9

2017–2022-yillarda O'zbekistonda qurilish materiallari eksporti 1,9 baravarga o'sgan bo'lishiga qaramay importi ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ushbu davrda qurilish materiallari importi 1,7 baravarga o'sgan. Namangan viloyatida qurilish materiallari eksporti mazkur davrda 23,8 baravarga o'sishga erishgan. Import esa 2 baravarga ko'paygan. 2022-yilda respublika qurilish materiallari eksporti tarkibida Namangan viloyati ulushi 2,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, qurilish materiallari importi tarkibida 3,5 foizni tashkil etgan.


2017–2022-yillarda Namangan viloyatidan eksport qilingan qurilish materiallari mamlakatlar bo'yicha tahlil etilganda quyidagi holat o'rganildi. Namangan viloyatidan qurilish materiallari eksportining asosiy qismi Tojikiston 4,6 foiz, Ozarbayjon 6,5 foiz, Qozog'iston 7 foiz, Qirg'iziston 12 foiz, Rossiya Federatsiyasi 33 foiz davlatlariga to'g'ri kelgan. 2017–2022-yillarda Namangan viloyati qurilish materiallari importi tarkibida Turkiya 4,1 foiz, Qirg'iziston 5,6 foiz, Qozog'iston 8,1 foiz, Xitoy 9,8 foiz, Rossiya Federatsiyasi 61,6 foiz ushbu davlatlar ulushiga to'g'ri kelgan.

Qurilish materiallarigi bo'lgan talabni hech bir hudud o'z ichki materiallari hisobidan qondira olmaydi. Chunki qurilish materiallari ishlab chiqarishni

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi




joylashtirish uchun lozim bo'ladigan talablar barcha hududlarda birdek uchramaydi.



1-rasm. 2022 yilda O'zbekistonda qurilish materiallariga bo'lgan ichki talabni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta'minlanish darajasi<sup>17</sup>

Tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida so'rovnomadan foydalanilgan bo'lib, unga ko'ra Namangan viloyatida qurilish ishlari sifatini oshirishda qurilish materiallari bozori bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'rganish, tahlil qilish va tegishli xulosa va tavsiyalar tayyorlash maqsadida, muallif ishlab chiqqan maxsus dastur asosida anketa so'rovi o'tkazildi hamda quyidagi javoblar olindi.




2-rasm. Qurilish firmalari tomonidan import tovarlardan foydalanish darajasini ekspert baholash<sup>18</sup>

So'rovnoma natijalariga ko'ra ishtirok etgan qurilish firmalari tomonidan "qanday turdagi import materiallardan ko'proq foydalaniladi" degan savolga olingan javoblar yuqorida keltirilgan bo'lib, unga ko'ra bino ichki qismini

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>18</sup> Muallif ishlanmasi

pardozlash ishlari uchun foydalaniladigan qurilish materiallarining ko'proq qismi import tovarlar ulushiga to'g'ri kelar ekan.



■ Asosiy turdagi qurilish materiallar narxi

■ Import tovarlarni mahalliyashtirilmaganligi

■ O'rinbosar bo'lgan innovatsion qurilish materiallar yaratishga yetarli e'tibor qaratilmayotgani

■ Yirik hajmda import bo'layotgan tovarlarning ko'pligi

3-rasm. "Qurilish ishlari tannarxini pasaytirishda qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi" savoliga berilgan javoblar<sup>19</sup>

Mamlakatimizda qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda mahalliy qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning eksport qilinayotgan mahsulotini sertifikatlashtirish bo'yicha xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining eksportni rivojlantirish agentligi tomonidan qoplanishi kabi imtiyozlar joriy etildi. Qurilish materiallari eksport salohiyatini oshirish maqsadida 2021-yilda 505 ta, jumladan, avtoklav gazobeton yoki ochiq tuzilishli yengil to'ldirgichdan yig'ma temirbeton elementlar, bruschatka va bordyorlar, issiqlik izolyasiyalash materiallari va mahsulotlari, beton va tegishli mahsulotlar, markaziy isitish va markaziy sovutishning yig'ma tizimlari, binolar va qurilish komponentlarining issiqlik tavsiflari, qurilish oynasi bo'yicha xalqaro EN standartlar qabul qilinadi. Shu bilan birga, 2021-yilda tosh, gips va keramikadan tayyorlangan mahsulotlar xavfsizligi to'g'risida, temir-beton, beton konstruksiyalar xavfsizligiga qo'yiladigan talablar, keramik sanitar-texnik mahsulotlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari bo'yicha umumiy texnik reglamentlar hamda polimerlar va ulardan olinadigan mahsulotlarning xavfsizligi to'g'risida maxsus texnik reglamentlar qabul qilindi.


Sifatli va xavfsiz yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo'yicha keyingi uch yilda qabul qilingan xalqaro standartlar 4 baravarga ko'paydi. Qurilish materiallari tarmog'i keyingi o'n yillikda iqtisodiyotning "drayver" sohaslaridan bir bo'lib qolmoqda.

2021-yilning 31-dekabriga qadar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali qabul qilinadigan qurilish materiallari sohasidagi xalqaro standartlar 1387 tani

<sup>19</sup>[https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLScFfinRxCgwG3J\\_msRwb4tlo4KOz32EeE81YSrHQ2P4YZDWzwiviewform?pli=1](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLScFfinRxCgwG3J_msRwb4tlo4KOz32EeE81YSrHQ2P4YZDWzwiviewform?pli=1)

tashkil qildi. Jumladan, 2019-yilda 340 ta, 2020-yilda 542 ta va 2021-yil davomida 505 ta xalqaro standartlar qabul qilindi.<sup>20</sup>

Dissertatsiyaning “**Qurilish materiallari bozori rivojlanishida marketing konsepsiyalaridan foydalanishni takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida viloyatda qurilish materiallari elektron savdosini rivojlantirish bo'yicha takliflar asoslandi, Namangan viloyati qurilish materiallari sanoatini zamonaviy yo'nalishlarda rivojlantirish uchun klaster modeli yaratildi, qurilish materiallari bozorini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, ularning 2026-yilgacha bo'lgan ko'rsatkichlari prognoz qilindi.



**4-rasm. Qurilish firmalari tomonidan faoliyatini amalga oshirish jarayonida qurilish materiallarini sotib olish usullaridan foydalanish bo'yicha qo'yilgan savolga javoblar tahlili<sup>21</sup>**

Dissertatsiya uchinchi bobining birinchi qismida qurilish materiallari elektron savdo platformasi samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar berilgan.

**4-jadval**

**2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasi va Namangan viloyatida elektron tijorat jami savdo aylanmasi tahlili<sup>22</sup>**

№	Hududlar nomi	mlrd.so'm					
		2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil
1	O'zbekiston Respublikasi	12,1	40,9	275,3	1 002,5	5 978,7	10886,8
2	Namangan viloyati	0,0	0,2	5,2	19,1	32,7	47,3
Jami Elektron savdoda Namangan viloyati ulushi % da		0,0	0,6	1,9	1,9	0,5	0,4

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23 maydagi (№PQ-4335) "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori// www.lex.uz

<sup>21</sup> <https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSexOxaVKu6FcZiyyeszHu9QL7RICOqpxtw2ocbgCWmGDvhQ/vi>wform

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2017–2022-yillarda respublikamizda elektron savdo aylanmasi sezilarli darajada oʻsgan boʻlsa ham, jahon elektron savdo bozorida hali koʻrsatkichimiz juda past. Umuman qurilish materiallari bozorini rivojlantirishda, ularni chakana savdosiga alohida ahamiyat berish, ayniqsa, zamonaviy “Qurilish materiallari gipermarketlari”ni Namangan, Chust, Uchqoʻrgʻon shaharlarida, har bir shahar va tumanlarda qurilish materiallarini assortimenti, naʼmunasini koʻrsatib sotish va uyiga yetkazib berish xizmatini koʻrsatuvchi shaxobchalar tashkil etish zarurligi dissertatsiyada asoslangan. Chakana savdoni rivojlanishi natijasida qurilish materiallari assortimenti koʻpayadi, aholini talabi toʻlaroq qondiriladi va qurilish ishlari hajmini oshishiga taʼsir koʻrsatadi.

**Qurilish ishlari koʻrsatkichiga taʼsir etuvchi omillarning 2016-2022-yil koʻrsatkichlari tahlili<sup>23</sup>** 5-jadval

Yil	Aholi soni $X_1$ (ming kishi)		Aholi jon boshiga umumiy daromadlar toʻgʻri kelishi $X_2$ (ming soʻm)		Aholi jon boshiga qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi $X_3$ (ming soʻm)		Aholi jon boshiga qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi hajmi $X_4$ (ming soʻm)		Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi $Y$ (ming soʻm)	
	Oʻzbekiston	Namangan viloyati	Oʻzbekiston	Namangan viloyati	Oʻzbekiston	Namangan viloyati	Oʻzbekiston	Namangan viloyati	Oʻzbekiston	Namangan viloyati
2016	28124,7	2601,1	6147,7	4578,9	163,8	61,7	41,5	58,0	979,9	467,9
2017	32120,5	2652,4	7314,1	5733,3	251,2	72,8	48,4	70,6	1080,2	556,1
2018	32656,7	2699,6	9128,6	6887,6	396,7	112,4	79,9	93,6	1565,6	836,2
2019	33255,5	2752,9	10891,3	8293,1	506,4	153,9	172,0	139,4	2139,6	1260,8
2020	33905,2	2810,8	12122,2	9258,8	527,6	203,4	260,0	200,8	2599,3	1580,3
2021	34558,9	2867,5	14869,8	11353,5	666,3	241,8	329,6	256,5	3110,4	1937,8
2022	35348,3	2931,1	17807,3	13880,7	769,7	272,7	419,9	306,7	3697,6	2269,8

STATA-16 dasturi asosida quyidagi matematik modelni hosil qilamiz:

$$Y = 1,7877x_1 + 0,0178x_2 + 0,6876x_3 + 5,2439x_4 - 4460,395.$$

Matematik model koeffitsientlarini Fisher mezoni bilan baholaymiz.

$F$ -mezonining haqiqiy qiymati jadval qiymatidan

$$(\alpha=0,05, \quad k_1=5, \quad k_2=7-4-1=2) : F_{\text{jadval}}=19,30.$$

( $F_{\text{haq, qiymat}}=127,80 > F_{\text{jadval}}=19,30$ ) katta, u holda matematik model jarayonni toʻgʻri aks ettirganligini bildiradi.

Matematik modelni tahlili shuni koʻrsatadiki, Namangan viloyatida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmiga aholi soni, aholi jon boshiga qurilish materiallari chakana savdo aylanmasi hajmining taʼsiri sezilarli ekanligini koʻrsatmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda umuman savdoga boʻlgan munosabatni oʻzgartirish, maxsus savdo ixtisosligi boʻyicha mutaxassislarni tayyorlashga kirishish zarur. Respublikada mustaqillik yillarida savdo va umumiy ovqatlanish sohalariga oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash yoʻliga qoʻyilgani yoʻq. Elektron savdoni yoʻlga qoʻyish uchun ham bilimli mutaxassislar zarur. Mamlakat

<sup>23</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

miqyosida, savdo va xizmatlar soxasini boshqarish bo'yicha maxsus qonun ham yo'q. Ammo "O'zbekistonda elektron tijorat" to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan. Mazkur qonunning mazmun-moxiyati yanada yaxshilash bo'yicha dissertatsiyada maxsus tavsiyalar asoslangan.

